



Received: August 3, 2025
Accepted: September 20, 2025
Available online: September 25, 2025

Ibrohim G'afurov

O'zbekiston Qahramoni

BUYUK BEHBUDIY SHAXSIYATI

ANNOTATSIYA

Buyuk maqsadlarni buyuk shaxslar amalga oshiradilar. Maqolada muallif xalqimizning vijdoni, ori bo'lgan buyuk inson Mahmudxo'ja Behbudiy shaxsiyati haqida fikr yuritadi.

Ibrohim Gafurov

Hero of Uzbekistan

PERSONALITY OF THE GREAT BEHBUDI

ABSTRACT

Great ideas are expressed by great personalities. The author meditates upon the personality of Mahmudkhoja Behbudi who is the pride and honour of the nation.

Jadidlar karvonboshisi Mahmudxo'ja Behbudiy o'n to'qqizinchi asrning oxiri yigirmanchi asrning dastlabki o'nyilliklarida Turkistonning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy hayotida yorqin iz qoldirgan siymolardan biri. U o'z davrida mana shu davlat, jamiyat, inson hayoti yo'nalishlarida juda katta inqilobiy o'zgarishlar yuzaga chiqqan boshlaganligini ko'rdi, o'z hayotini tamomila shu inqilobiy o'zgarishlarga bag'ishladi. Ko'p hollarda inqilobiy o'zgarishlarning muallifi va yetakchisi, pioneri bo'ldi.

Ozodlik, ijtimoiy o'zgarishlar uchun kurash zamonlarida maydonga xalqning otalari chiqadi. "Xalq otasi" degan tushuncha unchalar ilmiy bo'lavermasa-da, lekin milliy istiqloq harakatini boshidan o'tkazgan barcha xalqlar tarixida shu tushunchaga duch kelamiz. Aslida u paternalistik bir tushuncha bo'lsa-da va muayyan darajada unda xalqonalik zuhur etsa-da, u orqali o'z xalqini ulkan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy o'zgarishlar sari yetaklagan va bu o'zgarishlarga yo'l ko'rsatgan, ularning boshida turgan, teran demokratik qarashlarga ega bo'lgan siymolar nazarda tutilgan.

Shu ma'noda Mahmudxo'ja Behbudiy o'z serqirra faoliyati barobarida millat otasi degan buyuk nomga sazovor bo'lgan edi. Uning eng iqtidorli, sadoqatli safdosh, zamondoshlari fojiali o'limidan so'ng uning sharafiga bag'ishlab yozgan asarlarida to'g'ridan to'g'ri uni ota deb atagan va millat otasi kabi ta'riflagan edilar:

*Zolimning taxtini titratgan bir tovush qichqirdi: Otamning qabrini
qay yerga yoshurding?!*

(Fitrat)

Aziz otam, qo'limdagi gullarning Motam guli ekanligin bilmaysan...

(Cho'lpon)

Sadriddin Ayniy esa uni "Turon dohiysi" va "oliyshon ustod" deb ulug'lagan edi. Shunday ulug' nomga Mahmudxo'ja Behbudiyning safdosh-zamondoshi Munavvar qori Abdurashidxonov ham sazovor bo'lgan edi. Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Avloniy, Ayniy, Fitrat, Hamza Hakimzoda, So'fizoda singari ulkan

ijtimoiy-madaniy harakat sohiblarini ham xalq ota o'rnida ko'rar va izzatlardi. Biz ota o'rnida ko'rishni sal boshqacharoq tushunamiz. Ota o'rnida ko'rishning birinchi va asosiy sharti – ota o'rnida mumkin... Lekin buning uchun qaralayotgan inson, avvalo, xalqning, millatning vijdoni bo'lishi darkor.

Mahmudxo'ja Behbudiy va uning safdoshlari, maslakdoshlari, qolaversa, taqdiridoshlarini millatning, xalqning vijdoni deb to'la va har tomonlama ma'no bag'ishlab aytish mumkin.

Behbudiyning har bir yozgan so'zidan va tarixda raqam surib qolgan har bir harakatidan, har bir qilgan ishidan, Vatanga, xalqqa, insonga, hayotga, o'z xalqining taqdiriga munosabatidan vijdon, imon gurkirab, yangrab turadi. U ikki asrning ham vijdoni edi.

U vijdon mujassami bo'lganligi uchun ham uni har kim ota deb atashga haqli.

Munavvar qorining hibs va mahkumlikda yozgan dahshatli xotiralarini, alam-faryod, buyuk ma'rifat bilan to'lgan maqolalari, she'rlarini o'qisangiz, Mahmudxo'ja Behbudiyning "Sayohat xotiralarini" va alangali otash bo'lib yongan maqolalarini o'qisangiz, millat otasi, millatning vijdoni mujassami nima ekanligini to'la anglab, bilib yetasiz, albatta.

Biz Mahmudxo'ja Behbudiy va Munavvar qorini buyuk muallim ham deymiz. Sanoqli buyuk muallimlar kabi u millat hayotida ilk teatrda asos soldi, ilk jurnalga asos soldi, ilk jamiyatlarga asos soldi va ularning faoliyatida faol qatnashdi. Alangali ijtimoiy chiqishlari bilan zulm ostida ezilgan xalq ongini uyg'otish, yangi madaniy turmush asoslarini qurishga intildi...

Mahmudxo'ja Behbudiy yoki Munavvar qorining o'zlari qanday inson edilar? Ularning shaxsiyatlarining qirralarida qanday insoniy xususiyatlar ustunlik qiladi yoki yetakchi? – degan savollarga biz hali o'zimiz va zamondoshlarimizni qanoatlantiradigan daraja va miqyosda javob berolmaymiz. Zamondoshlarining xotiralarini juda kam, sanoqli va ularda ko'proq umumiyatli muhim gaplarga aytilgan, xolos.

Mahmudxo'ja Behbudiyning shaxsiyatini, uning inson sifatida belgili xususiyatlarini bizga meros qolgan asarlaridan bilsa bo'ladimi? Ularda bizning savolimizga javob bo'ladigan bunday ma'lumotlar topiladimi?

Bu jihatdan uning 1914-yili yozgan va bobma-bob "Oyina" jurnalida bosilib chiqqan "Sayohat xotiralarini" asari juda katta va o'lmas qimmatga egadir. Sayohatnomalar yozuvchilarning dunyoga, dunyo masalalariga munosabatlarinigina emas, shu munosabatlar orqali ularning kim va qanday inson ekanliklarini ham yorqin namoyon etadi. Nosir Xisrav, Bobur, Radishchev, Gyote, Xeyne, Nitiye, Nerval, Ibn Batuta, Marko Polo, Avliyo Chalabiy, Muqimiy singari juda ko'p ulug' adiblarning biri-biridan go'zal va benihoya mazmundor sayohatnomalarini eslash mumkin. Ularning har biri hayotiy va insoniy kuzatishlarning boyligiga ko'ra bir necha romanlarning qudratidan ko'proq qudratni o'zida jamlagan.

Adiblarning talanti, hayot va insonga qarashlari qanchalar boy bo'lsa, ularning sayohatnomalari shunchalar qiziqarli va ulug' ibrat kuchini qozonadi. Sayohatnomalar, qolaversa, eng ishonchli tarix yoki, to'g'rirog'i, tarixlarning eng ishonchlisidir.

Herodot, Pliniy va boshqa buyuk Rim, Yunon, Sharq tarixchilarining eng buyuk asarlari – insoniyat uchun eng qimmatli yodgorliklar sayohatlar taassurotlari o‘laroq paydo bo‘lmadimi! Hali Ibn Arabshoh va Klavixoni aytmayoq qo‘yaylik. Bu guvohliklar bizning o‘z tariximizni tanishimizda cheksiz bir qimmat va ahamiyatga ega.

Biz Mahmudxo‘ja Behbudiy shaxsiyatining ayrim nozik qirralari haqida so‘ylamoqchi bo‘lib turamiz. Ularni uning asarlari va ayniqsa “Sayohat xotiralari”dan xuddi har yerga sohib ketilgan oltin zarralari kabi axtarib topamiz. Ko‘p zamonlar ularga unchalar e‘tibor bermay o‘tib ham ketamiz. Chunki, oltin zarralari hayot tuprog‘i bilan aralashib yotadi. Ilg‘ab olgangina, oladi.

Inson shunday bir xilqatki, ba‘zan yuz yil birga yashasang ham, uni bilolmaysan. Yoki bilib ulgurolmaysan. Ba‘zi xilqatlarni bilish uchun asrlar ketadi. Navoiyni, Sakkokiyni, Atoiyni, Mashrabni hamon bilolmaymiz. Buyuk Hakim ota Boqirg‘on haqida nima bilamiz? Holbuki, u hammadan dardli qilib:

Odam o‘g‘li tug‘duqimiz o‘lmak uchun

degan yer yuziga kelgan eng buyuk so‘zlardan birini shunday sodda va eng go‘zal qilib aytgan. Nimani bilamiz Boqirg‘on haqida?

Ba‘zan inson shundayin bir xilqatki, bir zum ichida, bir og‘iz so‘zidan uning kimligiyu ota-bobolarining ham kim o‘tganligini bilib olasiz.

Har zolimning yerinda to‘qson turlug‘ chiyon bor, Uchmoh aytur sanda yo‘q, manga kelsa o‘lim yo‘q. Turluk ne‘matlar onuk yuz ming hazor alvon bor, Tamug‘ munglasha keldi bildirguchi rahmon bor...

Tamug‘ munglasha keldi... – shunchalar afsunkor bu so‘zlar. Bu – Boqirg‘on shivirlab aytgan so‘zlar. Dunyoni uning fantastik tamug‘i birlan bilishga, ko‘z o‘ngiga ibrat musavviroti kabi keltirishga chaqiradigan so‘zlar... Har yerda bor narsalarni bilish uchun sayohatnomalar yoziladi. Bilgan balki ibrat oladi. Mahmudxo‘ja Behbudiy ibrat olish va ibrat berish uchun Rossiya, Yevropa, Kichik Osiyo yerlariga borgan.

Umuman, insonni bilish qiyin. Olovni bilish, havo hazratlari, nur hazratlarini bilish osonroqday tuyiladi. Asli ularni ham bilib bo‘lmaydi. Qayerdan kelayapti, qayerda tugaydi? Nega, odam havodan bino bo‘ldi?

Mahmudxo‘ja o‘ga shoirona tabiatli. U go‘zal manzaralarni sevadi, qalbiga, xotirasiga jo qiladi. Ulardan o‘ta qattiq ta’sirlanadi. Katta bir romanist adibning qalamiga xos bo‘lgan unsurlar paydarpay yog‘iladi. Mahmudxo‘ja Damashq Shom shahriga borganda u yerdagi Umaviyya jome sharifini shunday tasvirlaydi: “Uch tarafi ravoq va masjidni mushtamil (o‘z ichiga olgan). Haramni uzunligi 240 gaz, eni 100 gaz bo‘lub, o‘rtasi marmar sahidur. Va sahn o‘rtasinda hashteu bir marmar favvora shodurvonlik (soyabonlik) joriy havz bor. Va haramni har tarafinda bir necha favvoralik vuzu’ mahallari bordur. Asl jome sharif ushbu haramni qibla va to‘loniy (uzun) tarafinda bo‘lub, nafs jome ichining tuli 210 gaz, arzi 58 gaz bo‘lub, masjidni ichida yakpora qirq dona marmar stun bordur. Har bir marmar stunlar yana marmar ravoqlar ila bir-birig‘a marbut bo‘lub, yana bu ravoqlarni har biri ustida ajoyib suratda ikki donadan ravoqlar yasilib, oning ustinda masjidning sahfi bino qilingandur. Masjidni to‘rt tarafi yerdan 8 gaz yuqorigacha devorlar musayqal, guldor va javhardor

oq va ko'k va qora a'lo jine katta oyinadek jilolik samoq (yaltiroq, oynadek oq tosh) va marmarlar ila bino qilinib, bu marmarlar unday ustolik ila bir-biriga vasl qilinibdurki, darzini topmoq mushkuldir...

Uzunligi 4-5 gaz, eni 2-3 gaz marmarlarni ustiga qozma va qabartma munabbat (yog'ochga o'yib ishlangan naqsh), islomiy, gireh va naqshlar qozilib, bizni mamlakatda ganch ustinda devorlarga namoya, mehrob, iroqi, muqarnas, munabbat, morpech... qilg'onlaridek, raxom (marmar) ustiga ajoyib naqshlar o'tkaribdurlarki, insonni har bir tosh o'zig'a parastish etar darajasigacha tasxir etar..."

Mahmudxo'ja har bir ko'rgan narsasini shu qadar aniq-tiniq va shoironaligicha tasvirlaydi. Me'moriy buyuklik, uning asir etuvchi xususiyatlarini me'morlikning uncha-muncha odamlar bilavermaydigan, faqat juda katta bilim egalorigina biladigan o'ziga xos tushunchalari, terminlarini o'z o'rnida qo'llab shu vosita orqali predmetni go'zal bir ravishda gavdalandiradi. Bularni hech qanday tayyorgarliksiz yo'l usti yozib, yo'l ustida peshma-pesh o'z jurnali "Oyina"ga jo'natayotganligi e'tiborga olinsa, Behbudiyning qanchalar keng bilimlarga ega bo'lganligi, eng murakkab dunyo hodisalarini ham tafakkur qudrati bilan yechish, tushuntirish, ifodalash yuksak iqtidori borligini har voqeabandda kuzatish mumkin. Taassuf bilan tan olishimiz kerakki, Behbudiy tasvirda qo'llagan juda ko'p maxsus me'moriy tushunchalar, atamalar hali-hamon zamonaviy lug'atlarimizga kirmagan, ularda til va termin boyligimiz sifatida o'z aksini topmagan. Biz shunday bilimdon va go'zal tasvirlarni o'zbek nasrining boshqa namunalarida uchratmaganmiz. Umumiyatli to'qilgan tasvirlar soneiz-sanoqsiz, lekin bunday aniq e'tiborli juda katta hayot va predmet bilimini talab qiladigan tasvir juda kam... Yana bir parcha:

"...mehroblarni ikki tarafinda va ichinda hamda ustinda marmar va javohirlik musayqal toshlar ustindagi qozma va qabartma naqshlar insonni duchori hayrat etar. Butun mehrob va atrofidagi toshlarga xolis oltun qabartmalar ila oyat va hadislar yozilgan sadaf, aqiq, zumurrad va zabarjad toshlaridan charxi ishlab, marmarlar ustinda mosh va naxuddan boshlab danak kattalig'igacha mayda, shunday muzoyiq va koshinkorilar etganki, o'zbekcha so'ylayin, bir taboqday joyiga bir soat qaragan ila ko'rub tamom qilolmaysan. Inson o'zini bir olam hunar, bir dunyo san'at ichinda ko'rub, avvalgi musulmonlarning din yo'lida etton say'i va qilg'on ixloslarining hamda hunar va nafis san'atda etgan taraqqiylarining va sarf etgan pul va g'ayratlarini o'ylovig'a g'arq bo'lub, ko'zi tinar va hech nimani ko'rmas darajasig'a kelur..."

E'tibor bering, kimda va qayerda uchrat siz manavi tushunchalarni:

*javohirlik musayqal toshlar, qozma va qabartma naqshlar,
oltun qabartmalar,
sadaf, aqiq, zumurrad va zabarjad toshlar,
charxi ishlab...
muzoyiq va koshinkorliklar...*

Behbudiyning o'zi ham bu san'atlarni ko'rib beixtiyor xitob qilib yuboradi:

"Iloho, bu na xoriqadur!". Behbudiy shaharlar, mamlakatlar, yodgorliklar, osori atiqalar, odamlar, ularning fe'l-atvorlarini o'z sehricha va haqiqiy sehri, sinoatini

topib ulkan san'atkorona so'zlar bilan tasvirlab o'tadi. Uning tasvirlarida ma'rifatning kuchi jilolanib turadi.

Behbudiy tabiatni sevadi, uning qudratli go'zalligidan behad ta'sirlanadi. Uning tabiatga munosabatida ma'rifatli qalbining o'tkir, boy, oliyjanob hissiyotlari ko'zga tashlanib turadi. Behbudiy o'z nazari to'xtagan manzara, hodisalardan loqayd va befarq o'qib ketmaydi. Dunyoni uning butun go'zalligi va murakkabligicha yuragiga singdirib, unga bo'lgan o'zining insoniy munosabatlarini aniqlay boshlaydi. Bu tasvirlarda Mahmudxo'ja behad sinchkov va o'ta e'tiborli odam sifatida ko'zga tashlanadi. Uning tasvirlarida muallim, padar, ma'rifatchi, millat otasi, taraqqiyparvarlik, vatan sevish, doim ulug' maqsadlarni oldiga qo'yish va ularga yetish yo'llarini qidirishga intilish xususiyatlari ro'yobga chiqadi. Mahmudxo'ja har narsaga qiziqadi va har narsaning tub mohiyatini topishni istaydi. Unda o'rganishga bo'lgan mayl va layoqat ham juda kuchli.

Bular ko'p jadidlarga va umuman jadidlarga xos bo'lgan teran insoniy xususiyatlar. Agar jadidlarni yakka-yakka emas, yaxlit bir bugun hodisa sifatida qarasak, ularning barchalariga xos bo'lgan xususiyatlarni topishni maqsad qilib qo'ysak, unda Mahmudxo'ja Behbudiyning bugun insoniy xususiyatlari va intilishlarida jadidchilikning umumiy belgi va xususiyatlarini ko'rishimiz, topishimiz mumkin. Xuddi shunday hodisani Ismoilbek, Munavvar qori, Qodiriy va Cho'lponda ham eng cho'qqiga ko'tarilgan holda kuzatishimiz mumkin.

Behbudiy dunyoni ko'ra-ko'ra, kurashlarda tajribalar orttira-orttira shunday xulosaga keldi: dunyoni yaxshi tomonga faqat insonning fidokorligi va ilm o'zgartiradi. "Sayohat xotiralari"ning bir yerida odamlarning o'z tarixlarini tiklashga urinayotganliklaridan ta'sirlanib shunday xitob qiladi: "Bu bo'lmasa va mundoq fidokorlik qilinmasa, milliyat va dinlar mahv bo'lub ketar...".

Mahmudxo'ja o'z dunyoqarashlari va nuqtayi nazarlarida, uning tili bilan gapirsak, doim musulmonlarga qayishgan, yonbosgan, doim ularning manfaatlarini ko'zlaganday, butun fikri-zikri ular bilan bir yaknafas bo'lib tuyilsa ham, aslida u juda keng fikr yuritadi, dini, irqi, millati, tili, urf-odatlaridan qat'i nazar, barcha xalqlarning farzandlariga faqat inson sifatida qaraydi. Ularga teng haq-huquqlarni ravo va munosib ko'radi. Kimligidan qat'i nazar, har bir insonni o'ziga birodar deb biladi. Har qanday sharoitda birodarona munosabatda bo'ladi. Bu birodarona munosabatda juda yuksak insoniy madaniyati va nazokati o'zgarmas konstanta tusini olganligini ko'ramiz. Birodarlikni qadrlaydi. Uning "Kitobat ul-atfol" asaridagi "Xat yozmoq shartlari" bo'limiga qayta-qayta e'tibor qiling-a, bundagi madaniyat, ichki go'zal odob-ikrom, insonni qadrlash qanchalar Behbudiy va jadidlar uchun yuksak mavqe tutganligini ko'rasiz. Uning barcha tanqidlar va barcha bahslarga, eng og'ir, chigal masalalarga munosabatida ham shunday o'zgarmas madaniyat, ichki kuch va odob-ikrom hukmron darajada aks etadi.

Mahmudxo'ja insonni sevolgancha birodarlikni undan-da ortiqroq sevadi. Turkman, tojik, rus, qozoq, o'zbek, arab, yahudiy, yunon, fransuz, ingliz bari uning uchun insonlikda birodardirlar.

U turkistoniy o'zbeklar yoki usmonli turklar uchun qanchalar kuyunsa, dard

cheksa, boshqalar uchun ham shunday dard chekadi, kuyunadi va ular uchun ham ma‘rifat va taraqqiyot yo‘lini sog‘inadi.

Lekin ajab va hech tushunib bo‘lmas bee‘tiborlikki, biz hamon Mahmudxo‘ja Behbudiy shunchalar mehr, zavq, bilimdonlik bilan o‘rgatgan, go‘zal namunalar taklif qilgan xat yozishga, yozishmalar olib borishga odatlanganimiz yo‘q. Fikr, qarash, odat ham shunchalar konservativ bo‘lishiga kishining goho aqli bovar qilmaydi.

Men yuragim orqamga tortib o‘ylaymanki, biz hamon madaniy millatga aylanish, azm-u qarorda mahkam turishda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori va Cho‘lpondan saboq olmaymiz. Holbuki, ma‘rifat darslarini ulardan hijja-hijjalab o‘rganmoq millatga aylanish yo‘lida bizga eng katta farz, ham qarz edi. Ularning vasiyatlariga rioya etmaslik, o‘z taqdiriga beparvolik qorong‘ulikdan boshqa qayerga olib borishi mumkin?

O‘lganlar ortidan qayg‘urish, tubsiz armon, uning ketidan keladigan umidsizlikdan emas:

Biz Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori, Qodiriy, Salimxon Tillaxonov, Cho‘lpon, Avloniy va boshqa chin ozodlik kurashchilari timsolida kimlarni yo‘qotganligimizni bilamizmi, o‘zimizga dam-badam hisob beramizmi?

Bul aziz insonlarimiz o‘sha paytlari juda ko‘p narsalardan umidsizlikka tushishga, keng avom ahvoli darajasida tirikchilik o‘tkazishga haqli edilar. Lekin ular Chor Rossiyasi qudrati oldida va qaramlikning tengsiz azob- uqubatlari qoshida ham umidsizlikka tushmas edilar. Ojizlik falsafasi ular uchun yot edi. Odamni chuqur o‘ylatadigan bir lavha. Behbudiyning “Ismoilbek hazratlari bilan suhbat”i. Ismoilbek Mahmudxo‘ja bilan uni qattiq sevib suhbat qilarkan va unga o‘z vasiyatlarini aytarkan, orada shu so‘zlar bexos-xos og‘zidan chiqadi:

“ – Oh bilmaym, shu Buxoro na o‘lur..

Men derman: “Afandim, Buxoroni hukumatimiz, ya’ni Rusiya tarbiyat etmaguncha Buxorodan bir shayi umid etib bo‘lmas”.

Chunonchi... ustod derlar:

“Evet, oxiri shuyla o‘lmog‘i lozim kelur...”.

Xaloskor o‘z ichingdan chiqmaguncha zulmdan xalos bo‘lmaysan. Lekin buning uchun millatning o‘zi tunganmas kuch-qudrat manbaiga aylanmog‘i darkor. Bu buyuk insonlar suhbatlari o‘tayotgan o‘n to‘rtinchi yili ichimizda besh-o‘n behbudiydilar o‘zga xaloskor kuch yetilmagan edi. Shuning uchun ular ahvolni o‘nglashda kuchli mamlakatlarga va, chunonchi, Chor Rossiyasiga umid bog‘lardilar. Ammo kasal ichdan tuzalmaguncha tuzalmas.

Ammo bu fikrga odamlar uzoq-uzoq yillar o‘tibgina keladilar.

Va bunga tanqidga layoqat kasb etgandagina erishish mumkin.